

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"
Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori
X.B.Yunusov

2024-yil "09" 08

AKUSHER-GINEKOLOGIK KASALLIKLARNING FUNKSIONAL-
LABORATOR DIAGNOSTIKASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000	– Qish loq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta‘lim sohasi:	840000	– Veterinariya
Mutaxassislik:	70840104	– Veterinariya akusherligi va hayvonlarni ko‘paytirish biotexnikasi

Fan modul kodi AGKFLD1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 6
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Akusher-ginekologik kasalliklar funksional- laborator diagnostikasi	90	90	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – magistr larga bo'g'ozlik patologiyasi, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, turli hayvonlarda sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari, hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklari funksional-laborator diagnostikasining nazariy asoslarini, akusher-ginekologik va andrologik dispanserlash uslubiyatlarini o'rgatishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish hamda mutaxassislikga oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - magistr larga bo'g'ozlik patologiyasi, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, turli hayvonlarda sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari, hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklari funksional-laborator diagnostikasining zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish orqali hayvonlar mahsuldorligi va reprodktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Bo'g'oz hayvonlarda gipovitaminozlarning funksional-laborator diagnostikasi</p> <p>Bo'g'oz hayvonlarda retinol yetishmovchiligining funksional-laborator diagnostikasi. Bug'oz hayvonlarda kalsiferol etishmovchiligining funksional-laborator diagnostikasi. Bug'oz hayvonlarda tokoretinol yetishmovchiligining funksional-laborator diagnostikasi. Bug'oz hayvonlarda B guruhi vitaminlari etishmovchiliklarining funksional-laborator diagnostikasi.</p> <p>2-mavzu. Bo'g'oz hayvonlarda gipomikroelementozlarning funksional-laborator diagnostikasi</p> <p>Bo'g'oz hayvonlarda kalsiy, fosfor etishmovchiligining funksional-laborator diagnostikasi. Bo'g'oz hayvonlarda yod yetishmovchiligining funksional-laborator diagnostikasi usullari. Bo'g'oz hayvonlarda kobalt, mis yetishmovchiligining</p>			

funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Bo'g'oz hayvonlarda marganes, rux yetishmovchiligining funksional-laborator diagnostikasi.

3-mavzu. Tug'ish patologiyalarining funksional-laborator diagnostikasi

Sigirlarda tug'ish patologiyalarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Biya, qo'y va echkilarda tug'ish patologiyalarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Mayda uy hayvonlarida tug'ish patologiyalarining funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari.

4-mavzu. Tug'ishdan keyingi davr patologiyalarining funksional-laborator diagnostikasi

Sigirlarda tug'ishdan keyingi davr patologiyalarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Biyalarda tug'ishdan keyingi davr patologiyalarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Qo'y va echkilarda tug'ishdan keyingi davr patologiyalarining asosiy turlari, sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari.

5-mavzu. Tug'ishdan keyingi ginekologik kasalliklarning funksional-laborator diagnostikasi.

Sigirlarda tug'ishdan keyingi ginekologik kasalliklarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Biyalarda tug'ishdan keyingi ginekologik kasalliklarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Qo'y va echkilarda tug'ishdan keyingi ginekologik kasalliklarining asosiy turlari, sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari.

6-mavzu. Hayvonlarda tuxumdonlar va tuxum yo'llari kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi.

Sigirlarda tuxumdonlar kasalliklarining UTT diagnostikasi. Sigirlarda tuxum yo'llari kasalliklarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Biyalarda tuxum yo'llari kasalliklarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Qo'y va echkilarda tuxum yo'llari kasalliklarining sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Hayvonlarda tuxumdonlar kasalliklarining UTT diagnostikasi.

7-mavzu. Bachadonning tug'ishdan keyingi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi

Sigirlarda bachadonning tug'ishdan keyingi kasalliklarining asosiy turlari, sabablari, funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Sigirlarda

bachadon kasalliklarining UTT diagnostikasi. Biyalarda bachadonning tug'ishdan keyingi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Qo'y va echkilarda bachadonning tug'ishdan keyingi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Biya, qo'y va echkilarda bachadon kasalliklarining ultratovush tekshiruv (UTT) diagnostikasi.

8-mavzu. Sigirlarda sut bezlari kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi

Sigirlarda sut bezlari kasalliklarining asosiy turlari, sabablari, sut bezlari kasalliklarining tasnifi. Sigirlarda sut bezlari kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari va vositalari. Sigirlarda zardobli va kataral mastitlarning funksional-laborator diagnostikasi. Sigirlarda subklinik mastitlarining funksional-laborator diagnostikasi usullari.

9-mavzu. Turli hayvonlarda sut bezi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi

Biyalarda sut bezlari kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Biyalarda zardobli va kataral mastitlarning funksional-laborator diagnostikasi. Biyalarda subklinik mastitlarining funksional-laborator diagnostikasi usullari. Qo'uy va echkilarda sut bezlari kasalliklarining asosiy turlari, sabablari, funksional-laborator diagnostikasi.

10-mavzu. Yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi

Yangi tug'ilgan hayvonlarni klinik-fiziologik tekshirish usullari. Yangi tug'ilgan hayvonlar hazm tizimi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Yangi tug'ilgan hayvonlar nafas va ayirish tizimi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari. Yangi tug'ilgan hayvonlarda majruhlik va nuqsonlarni funksional-laborator diagnostikasi usullari.

11-mavzu. Sigirlarda bo'g'ozlik va bepustliklarning funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari

Sigirlarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning klinik-fiziologik usullari. Sigirlarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning refleksologik usullari. Sigirlarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning vaginal usullari. Sigirlarda bo'g'ozlik va bepustliklarni to'g'ri ichak orqali aniqlash usuli. Sigirlarda bo'g'ozlikni aniqlashning laborator usullari.

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim
sohasining 70840104 – Veterinariya akusherligi va hayvonlarning
ko'paytirish biotexnikasi mutaxassisligi uchun tayyorlangan «Akusher-
ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi» fanning o'quv
dasturiga
TAQRIZ

Mamlakatimizda "Ta'lim" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi qonunlari asosida qishloq xo'jaligi va veterinariya fanini raqobatbardosh, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida ta'lim olayotgan magistr talabalar «Akusher-ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi» fanidan bo'g'ozlik patologiyasi, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, turli hayvonlarda sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari, hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklari funksional-laborator diagnostikasining nazariy asoslarini, hayvonlar mahsuldorligi va reprodktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Veterinariya mutaxassislik fanlaridan biri bo'lgan «Akusher-ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi» fani magistr'larga bo'g'ozlik patologiyasi, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, turli hayvonlarda sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari, hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklari funksional-laborator diagnostikasining zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish, kasalliklarni o'z vaqtida davolash va oldini olish orqali hayvonlar mahsuldorligi va reprodktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatadigan fandır.

Fan dasturining tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy t'limdagi o'rni, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari alohida-alohida berilgan.

«Akusher-ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi» fanidan tayyorlangan mazkur dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman va uni belgilangan tartibda tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.

Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari
va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi
davlat markazi direktori

Allamurodova M.M.

12-mavzu. Biyalarda bo'g'ozlik va bepustliklarning funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari

Biyalarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning klinik-fiziologik usullari. Biyalarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning refleksologik usullari. Sigirlarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning vaginal usullari. Biyalarda bo'g'ozlik va bepustliklarni to'g'ri ichak orqali aniqlash usuli. Biyalarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning laborator usullari.

13-mavzu. Qo'y va echkilarda bo'g'ozlik va bepustliklarning funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari

Qo'y va echkilarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning klinik usullari. Qo'y va echkilarda bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning refleksologik usullari. Qo'y va echkilarda bo'g'ozlik va bepustliklarni ul'tratovush tekshiruvi (UTT) yordamida aniqlash usuli. Qo'y va echkilarda bo'g'ozlikni laborator diagnostikasi.

14-mavzu. Mayda uy hayvonlarida bo'g'ozlikni aniqlashning funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari

Mayda uy hayvonlarida bo'g'ozlikni aniqlashning klinik usullari. Mayda uy hayvonlarida bo'g'ozlikni aniqlashning refleksologik usullari. Mayda uy hayvonlarida bo'g'ozlikni aniqlashning vaginal usullari. Mayda uy hayvonlarida bo'g'ozlik va bepustliklarni ul'tratovush tekshiruvi (UTT) yordamida aniqlash usuli. Mayda uy hayvonlarida bo'g'ozlik va bepustliklarni aniqlashning laborator usullari.

15-mavzu. Andrologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi

Erkak hayvonlar jinsiy a'zolarini klinik tekshirish usullari. Erkak hayvonlar spermasini laborator tekshirish usullari. Erkak hayvonlar spermasi faolligini tekshirish usullari. Aspermiya, nekrospermiya. Impotensiyalarni aniqlashning zamonaviy usullari. Erkak hayvonlar jinsiy a'zolari kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi usullari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Bo'g'oz hayvonlarning yotib qolishi (gipokalsiyemiya) kasalligining funksional-laborator diagnostikasi usullari
2. Bug'oz hayvonlarda gipovitaminozlarning funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari
3. Bug'oz hayvonlarda gipomikroelementozlarning (mis, kobalt, marganes, rux) funksional-laborator diagnostikasi.

4. Tug'ish patologiyalarining funksional-laborator diagnostikasi usullari
5. Tug'ishdan keyingi davr patologiyalarining funksional-laborator diagnostikasi
6. Sut bezlari kasalliklarining zamonaviy laborator diagnostikasi usullari
7. Sut bezlarining kasalliklari kasalligining funksional diagnostikasi usullari
8. Yashir mastitlarni zamonaviy laborator diagnostikasi usullari
9. Yangi tug'ilgan hayvonlar kasalligining funksional-laborator diagnostikasi
10. Hayvonlarda bachadon bo'yinchasi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi
11. Qin va qin dahlizi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi vositalari va usullari.
12. Sigirlarda bachadon kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi vositalari va usullari.
13. Biyalarda bachadon kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi vositalari va usullari.
14. Qo'y va echkilarda bachadon kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi vositalari va usullari.
15. Hayvonlarda bachadon kasalliklarining zamonaviy laborator diagnostikasi usullari.
16. Sigirlarda bachadonni kasalliklarining UTT diagnostikasi
17. Sigirlarda tuxumdonlar kasalliklarining funksional diagnostikasi.
18. Sigirlarda tuxum yo'llari kasalliklarining funksional diagnostikasi.
19. Biyalarda tuxumdonlar kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi.
20. Biyalarda tuxum yo'llari kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi
21. Qo'y va echkilarda tuxum yo'llari kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi
22. Sigirlarda ginekologik kasalliklar va bepustlik UTT diagnostikasi
23. Biyalarda ginekologik kasalliklar va bepustlik UTT diagnostikasi
24. Mayda uy hayvonlarida ginekologik kasalliklar va bepustlik UTT diagnostikasi
25. Hayvonlarda tuxumdonlar kasalliklarini UTT diagnostikasi
26. Sigirlarda bo'g'ozlik va bepustliklarning funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari
27. Biyalarda bo'g'ozlik va bepustliklarning funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari
28. Qo'y va echkilarda bo'g'ozlik va bepustliklarning funksional-laborator diagnostikasi zamonaviy usullari
29. Erkak hayvonlar jisiy a'zolari kasalliklarining funksional diagnostikasi.
30. Erkak hayvonlar jisiy a'zolari kasalliklarining laborator diagnostikasi.

Oliy ta'limning 800000 - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya bilim sohasining 70840104 – Veterinariya akusherligi va hayvonlarning ko'paytirish biotexnikasi mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Akusher-ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi" fanning o'quv dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga mos ravishda qishloq xo'jaligi va veterinariya ilm-fanini raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida tahsil olayotgan magistrlar "Akusher-ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi" fanidan bo'g'ozlik patologiyasi, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, turli hayvonlarda sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari, hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklari funksional-laborator diagnostikasining zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

"Akusher-ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi" fani mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, hayvonlarda uchraydigan bo'g'ozlik patologiyasi, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, turli hayvonlarda sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari, hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklari funksional-laborator diagnostikasining zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish, sigirlarda akusher-ginekologik dispanser tekshirishlar o'tkazishning nazariy asoslarini o'rgatadigan fandidir.

Dasturning asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, magistrarga bo'g'ozlik patologiyasi, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, turli hayvonlarda sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari, hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklari funksional-laborator diagnostikasining zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish orqali hayvonlar maxsuldorligi va reproduktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.

Dasturda fanning maqsadi va vazifalari: fan bo'yicha talabalarning tasavvuri, bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar: o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi: fanning ilm-fan va ishlah chiqarishdagi o'rni bo'yicha uslubiy ko'rsalmalar berilgan.

Dasturda fanning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya darslari va mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ko'rsalmalar, dars uchun kerak bo'ladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari alohida-alohida ifodalangan. Ma'ruza va amaliy darslar, mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari rejalashtirilgan soatlarga mos ravishda taqsimlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda "Akusher-ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi" fanidan tayyorlangan ushbu dasturni hozirgi davr va mutaxassislik bo'yicha malaka talablariga javob beradi, deb hisoblayman. Dastur ilmiy va uslubiy jihatdan DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman va tasdiqlashga hamda o'quv jarayonida qo'llash uchun tavsiya etaman.



Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti,
KADRLAR VA HODIMLAR BOSHQARUVI
BO'LIM 1

Ilmiy-tadqiqot bo'limi mudiri, v.f.d.
Shaymova Tasdig'loyman

O.U. Kuldashiev

	<p>12. Студенцов А.П., Шипилов В.С., Никитин В.Я. и др.; Под ред. В.Я. Никитина и М.Г. Миролюбова. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения/ – перераб. и доп. Учебник – М.: Колос, 2019 год.</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>13. www.Ziyo.net.uz.</p> <p>14. www.vetjurnal.uz</p> <p>15. http://veterinary@actavis.ru</p> <p>16. http://www.kodges.ru</p> <p>17. www.urnivi.ru</p> <p>18. fvat@academy.uzsci.net</p>
8.	<p>Fan dasturi “Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti” Kengashining 2024-yil “2”-avgustdagi “12-sonli bayoni bilan ma’qullangan</p>
9.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar:</p> <p>B.M.Eshburiyev– SamDVMCHBU, Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrası professori, v.f.d.</p> <p>S.M.Djumanov - SamDVMCHBU, Veterinariya jarrohligi va akusherlik kafedrası dotsenti v.b., v.f.n.</p>
10.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. O.U.Kuldoshev– Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti, laboratoriya mudiri, v.f.d.</p> <p>2. M.M.Allamurodova- Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori</p>

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Hayvonlarda akusher ginekologik kasalliklar funksional-laborator diagnostikasi vositalari, ularni ishlatish qoidalari.
2. Bo’g’oz biyalarning gipokalsiyemiya kasalligi funksional-laborator diagnostikasi.
3. Sog’indan chiqarilgan bo’g’oz hayvonlarda A, D, E gipovitaminozlarning laborator diagnostikasi.
4. Bo’g’oz hayvonlarda yod, mis, kobalt, marganes va rux yetishmovchiligi laborator diagnostikasi.
5. Mayda uy hayvonlarida tug’ish patologiyalarining funksional-laborator diagnostikasi.
6. Mayda uy hayvonlarida tug’ishdan keyingi davr patologiyalarining funksional-laborator diagnostikasi.
7. Biyalarda sut bezi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi usullari.
8. Mayda uy hayvonlarida bachadon bo’yinchasi kasalliklarining funksional-laborator diagnostikasi.
9. Mayda uy hayvonlarida bachadon kasalliklarining funksional diagnostikasi vositalari va usullari.
10. Biyalarda bachadon kasalliklarining funksional diagnostikasi vositalari va usullari.
11. Ginekologik kasalliklar diagnostikasida qindan olingan suyuqlikni laborator tekshirishlar.
12. Biyalarda bachadon kasalliklarining zamonaviy laborator diagnostikasi usullari.
13. Gipogalaktiya va agalaktiya.
14. Mastitlar laborator diagnostikasida sutdagi somatik hujayralar foizini aniqlashning ahamiyati.
15. Kuyikishni aniqlovchi buqalarni tayyorlash usullari.
16. Kuyikishni aniqlovchi qo’chqorlarni tayyorlash usullari.
17. Biyalarda kuyikishni aniqlash usullari. Kuyikishni aniqlovchi aug’irlarni tayyorlash usullari
18. Xo’jalik misolida sigirlarda akusher-ginekologik dispanserlash o’tkazish va olingan natijalarning tahlili.
19. Hayvonlarda sut bezining ekstirpatsiyasi
20. Cho’chqalarda metrit-mastit-agalaktiya sindromi
21. Sigirlarda tug’ishdan keyingi gangrenoz septik metrit.
22. It va mushuklarda tug’ishdan keyingi gangrenoz septik metrit.
23. Biyalarda tug’ishdan keyingi gangrenoz septik metrit.
24. Turli hayvonlarda tug’ish va tug’ishdan keyingi davrni kechishidagi o’ziga

	xosliklar.
3.	<p>VI. Ilmiy amaliyot (stajirovka)</p> <p>Ilmiy amaliyot ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy amaliyot (stajirovka) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrlar eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot ishlari, taqozo etganda individual ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.</p> <p>Ilmiy amaliyot (stajirovka):</p> <ul style="list-style-type: none"> • ilmiy tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishi; • fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishi; • amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirishi; • kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi lozim. <p>Bunda ilmiy amaliyot (stajirovka)ga yo'llangan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida ham bajarishi ko'zda tutiladi. Ushbu holatda stajirovkani tashkil etish tartib-qoidolari amaldagi normativ-huquqiy hujjat (Nizom) asosida olib boriladi.</p>
4.	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • bo'g'oz hayvonlarning kasalliklari, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklari, hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklarini sabablari, kechish xususiyatlari, diagnostikasi hamda kasalliklarni davolash va oldini olishning ilmiy va nazariy asoslari haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> • hayvonlarning akusher-ginekologik kasalliklarining diagnostikasi, oldini olish va davolashning zamonaviy usullarini, bo'g'ozlik patologiyasi, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr patologiyalari, turli hayvonlarda sut bezlarining kasalliklari, yangi tug'ilgan hayvonlar kasalliklarni funksional-laborator dagnostikasi usullarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> • hayvonlarning ginekologik va andrologik kasalliklari funksional-laborator diagnostikasining ilmiy asoslangan zamonaviy usullarini qo'llash va olingan natijalarni tahlil qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).</i>
5.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar;

	<ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
7.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. - Toshkent.: "Fan va texnologiyalar", 2018 yil. 2. Eshburiev B.M., Djumanov S.M. Alimov B.S., Hayvonlar ko'payish biotexnikasi. Darslik. - Samarqand.: "SamDU tahririy-nashiriyot", 2023 yil. 3. Eshburiev B.M., Eshburiev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - Samarqand.: "SamDU tahririy-nashiriyot", 2020 yil. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 b. 5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 36 b. 6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 b. 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni. 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori. 9. David E.Noakes Timothy J.Parkinson Gary C.W. England. Veterinary Reproduction and obstetrics. Coperight. 2019 by Elsevier, Ltd. All rights reserved. 10. Акушерство, гинекология и биотехника репродукции животных: Учебник / Под ред. Г.П.Дюльгера. - 9-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Издательство «Лань», 2019. - 548 с.: ил. - (Учебники для вузов. Специальная литература). 11. Баймишев Х.Б., Землянкин В.В., Баймишев М.Х. Практикум по ветакушерству и гинекологии. Учебное пособие. ООО Издательство «Книга» Самара 2012 год.